



## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DUNYO MANZARASINING FRAZELOGIZMLARDAGI AKSI

Hakimova Sadoqat Dilshodbekovna

O'zDJTU Ingliz tili nazariyasi aspektlari N3 kafedra

o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6327467>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:17-fevral 2022

Ma'qullandi:22-fevral 2022

Chop etildi:27-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

frazeologiya, ibora,  
frazeologik chatishma,  
frazeologik birlashma,  
frazeologik qo'shilma.

### ANNOTATSIYA

*Frazeologiya o'zbek tilshunosligining keyingi taraqqiyotida tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Ingliz tilshunosligida frazeologiyaga avvalroq qadam qo'yilgan bo'lsada, o'zbek tilshunosligida bu sohadagi o'rganishlar o'tgan asrning 40-50- yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Sh. Raxmatullayev (1969), G.A.Bayramov (1970), G.X.Axunzyakov (1974), V.G.Uraksin (1975), L.K.Bayramova (1983), M.F.Chernov (1986) larning doktorlik dissertatsiyalari frazeologik birliklarni o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu ilmiy maqolada frazeologizmlarning o'zbek va jahon tillarida qay darajada qo'llanilishi, bu boradagi tilshunoslarning olib borayotgan ilmiy izlanishlari ko'rib chiqiladi.*

“Frazeologiya” atamasi yunoncha “frama” (phrasis- ifoda, nutq o'rami) so'zidan olingan bo'lib, bu atama turlicha ma'nolarni anglatadi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki xil ma'noda qo'llaniladi: tildagi mavjud frazeologik birliklarning jami ma'nosida, hamda shunday birliklarni o'rganuvchi soha ma'nosida keladi. Demak, frazeologiya iboralar haqidagi ilmdir. Jahon tilshunosligida frazeologiya tez taraqqiy etib kelayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Jumladan, birgina turkiyshunoslikda frazeologiyani sistemali ravishda o'rganish o'tgan asrning 40-50 yillaridan boshlandi. Shu davrda turli tillardagi frazeologik birliklarni

grammatik, leksik-semantik jihatdan o'rganish sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Taniqli frazeolog olimi N.N.Amosova ta'kidlaganlaridek “Bu lingvistik sohaning shakllanishi va taraqqiyoti ko'plab frazeolog olimlarning turli tillar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari ”dir. Frazeologizmlar ham xuddi so'zlarga o'xshab shakl va ma'no birligiga ega hisoblanadi.

So'zning shakliy tomonini tovushlar hosil qilsa, frazeologizmlarning shakliy tomonini so'zlar tashkil etadi. Frazeologizmlar va so'zlar sintaktik vazifaga ko'ra umumiylikka egadir. Frazeologizmlar lug'aviy birlik bo'lganidan, xuddi so'zlar kabi gapda bir bo'lak



vazifasini bajaradi. Masalan: But you know it's Hobson's choice. Hozir Hayotning ko'ngliga qil sig'maydi. Bu har ikkala gaodagi frazeologizmlar kesim vazifasida qo'llanilgan. Frazeologizmlar ham, so'zlarga o'xshab, ko'p ma'nolilik va omonimlik xususiyatlariga ega. Frazeologizmlar va so'zlar o'rtasidagi o'xshashlik izomorfizm hodisasi deyiladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, frazeologizmlar va so'zlar o'rtasidagi farqlar ham anchagina. Tilshunos olim A.V.Kunin, bu ikki til birligi o'rtasidagi quyidagi farqlarni keltirib o'tdi:

1. So'zlar va frazeologizmlar ham semantik, ham strukturaviy jihatdan farqlanadi.

2. Frazeologizmlar frazeologik ma'noda ega bo'lgan so'zlar birikmasidir.

Tilshunoslikning frazeologiya sohasiga katta hissa qo'shgan V.V.Vinogradovning rus frazeologizmlari klassifikatsiyasi ingliz frazeologizmlarini ham joriy etgan. "Olimning frazeologizmlar tasnifi usuli ba'zi hozirgi zamon tilshunoslari fikricha eskirgan usul hisoblanadi. Lekin bu usul semantik prinsipga asoslangan birinchi tasnif usuli bo'lgan holda hali ham o'z qiymatini yo'qotmagan, shuni ta'kidlash lozimki, frazeologizmlarning semantik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega " - deydi G.B.Antrushina. V.V.Vinogradovning bu tasnif usuli frazeologizmlar tarkibiy qismlarining o'zaro sintaktik birikishiga asoslangan hisoblanadi.. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan frazeologizmlar komponentlari o'rtasida eng zaif birikuv kuzatiladi. Frazeologizmlar ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nosidan qanchalik ko'p farq qilsa, semantik birikuv darajasida shuncha yuqori bo'ladi. Shunga ko'ra V.V.Vinogradov frazeologizmlarni uch sinfga bo'ladi:

1. Frazeologik chatishmalar (phraseological fusions)

2. Frazeologik qo'shilmalar (phraseological units)

3. Frazeologik birlashmalar (phraseological collocations or combinations)

Frazeologik chatishmalar – komponentlarning ma'nolari butun birlikning ma'nosiga aloqador bo'lmagan frazeologizmlardir. Masalan: **heavy father-teatr pyesasidagi asosiy rol, kick the bucket-o'lmoq, red tape-byurokratik metodlar** ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bo'g'liq bo'lmagan yaxlit xolda bir ma'no beruvchi frazeologizmlardir. Frazeologik chatishmalar ma'nosi butunlay o'zgargan so'z birikmasidir. Ammo frazeologik qo'shilmalardan farqli o'laroq, ularning ma'nolari tarkibiy qismlarining ma'nolaridan anglashilmaydi; metaforaga asoslangan ma'no ko'chish o'z aniqligini yo'qotgan. **To leave smb in lurch (to abandon a friend when he is in trouble), to show the white feather (to betray one's cowardice), to dance attendance on smb (to try and attract smb, to show exaggerated attention)** kabi frazeologizmlar ham frazeologik chatishmalarga misol bo'la oladi.

Frazeologik qo'shilmalarning leksik komponentlari eng turg'un hisoblanadi. Masalan; **to look a gift horse in the mouth (to examine a person too critically. To find fault with smth one gained without effort), to ride the high horse (to behave in a superior, haughty, overbearing way) a big bug (a person of importance), a fish out of water (a person situated uncomfortably outside his usual or proper environment)** [25;43] kabi frazeologizmlar frazeologik qo'shilmalarga misol bo'la oladi. Frazeologik qo'shilmalar hajmi anchagina. Ulardan ba'zilari osongina tarjima qilinadi va hattoki ba'zilari internatsional hamdir. Masalan: to know the wind blows-qayerga shamol esishini bilmoq.



Frazeologik birlashmalar o'ziga xos valentlikka ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. Bunday frazeologik birliklarning komponentlaridan biri o'zining to'g'ri ma'nosida, qolganlari metaforik ma'noda qo'llaniladi. Frazeologik birlashmalar ma'lum drajada semantic jihatdan bo'linmasdir. Frazeologik birlashmalar ma'nosi qisman o'zgargan so'zlar birikmasidir. Bu frazeologik birliklar ma'nosi ularni tashkil etuvchi so'zlarning ma'nosidan osongina anglashadi. To be at one's wits end, to stick at nothing, gospel truth, bosom friend kabilar frazeologik birlashmalarga misol bo'ladi. **Ingliz tilida grammatik jihatdan tasniflangan iboralar:**

Get the wrong end of the stick (misunderstand) – verb + object

Pull a fast one (trick, deceive smb) – verb + object

Poke your nose into (interfere) – verb + object

Be over the moon (extremely happy) – verb + prepositional phrase

Feel down in the dumps (depressed) – verb + prepositional phrase

Be in the red (have a negative bank balance) – verb + prepositional phrase

Biz ishimizda ushbu frazeologizmlarning ayrimlarini tahlil qilamiz.

1. **to go to Canossa**-frazeologizmi o'zbek tiliga "mag'lubiyatni tan olgan hamda g'ururidan voz kechmoq", "biron kishi oldida past ketmoq" iboralar bilan tarjima qilinadi. Voqelik esa aslida shunday: 1977 yilda Kanossada german imperatori Genrix IV mag'lubligini tan oladi va Rim papasi Grigoriy VII oldida past ketadi. Ushbu voqelik sabab tilda

"to go to Canossa" frazeologizmi paydo bo'lgan.

2. **Meet one's Waterloo** – eng so'ngi zarbaga (mag'lubiyatga) uchramoq frazeologizmi. Ushbu frazeologizmning paydo bo'lishiga sabab shundan iboratki, 1815 qilda fransuz qo'mondoni Napoleonning Vaterlo oldidagi eng so'nggi qaqshatgich zarbaga uchragan. Uning ushbu mag'lubiyati, zarbaga uchrashi tilda "meet one's waterloo" iborasini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

3. **Brummagen button** – soxta tanga (mis xususidagi tanga). Ushbu frazeologizm ancha eskirgan bo'lib, Birmingham ya'ni Angliyaning yirik shaharlaridan birining nomini buzib aytilgan shakli. Ushbu shaharda o'tgan XVII asrda shaharda kumush tangalar soxtalashtirilgan, shuning natijasida "Brummagen button" iborasi yuzaga kelganligini ko'ramiz.

Demak, birinchi guruhga kiruvchi frazeologizmlar ijtimoiy-tarixiy omillar asosida yuzaga keladi hamda uzoq o'tmish va tarixiy voqealar bilan bog'langan bo'ladi. Frazeologik birliklar hayotiy voqealar, ijtimoiy – tarixiy hodisalar bilan bog'liq holda paydo bo'ladi va davr o'tishi bilan eskirib iste'moldan chiqadi. Eskirgan frazeologizmlar esa tasvirlanayotgan davr ruhini berish, personajlar nutqini individuallashtirish uchun ishlatiladi. Frazeologik birliklar tarkibi bir nechta so'zdan iborat bo'lishiga qaramay, ular yagona umumiy ko'chma ma'no bilan birlashadi va ta'sitchanlik va obrazlilikni ifodalaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi – T.: "Fan" 1983
2. Bafoyeva M. Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish. – T.: O'TA. 2003. №2-B. 48-50.
3. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil'. – T.: "Fan". 1988



4. Amosova N.N. Основы английской фразеологии - М.: 1963.
5. Baratova M. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning ma'no va shakl xususiyatlari. Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro, 2004.
6. Gindzburg G.A. A course in Modern English Lexicology. – M.: 1966.